

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
KENGASHINING KENGAYTIRILGAN  
5- SON YIG‘ILISHI BAYONIDAN  
KO‘CHIRMA**

*Toshkent shahri, rektorat  
ARM majlislar zali*

*2023 yil 27 yanvar,  
soat 11:00*

**KUN TARTIBI:**

**6. Xorijiy davlat fuqarolarini masofaviy ta‘lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risida.**

***Eshitildi: Prorektor R. Shirinova***

Xorijiy davlat fuqarolarini masofaviy ta‘lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish tartibi ishlab chiqilganligi ma‘lum qilindi.

Universitet Hemis dasturiy ta‘minot platformasida xorijiy talabalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, o‘quv kontentlarining to‘liq mavjudligi nazoratini olib borish, ta‘lim krediti tizimini tashkil etishga oid ishlarini yanada takomillashtirish lozimligi asoslab berildi hamda alohida tartib bilan amalga oshirilish zaruriyati mavjudligi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, xorijiy talabalar bilan muntazam bog‘lanish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ishlarini yaxshilash zarurligi yoritildi.

Kun tartibida ko‘rilgan masala va bildirilgan takliflardan kelib chiqib Kengash

**QAROR QILADI:**

1. Xorijiy davlat fuqarolarini masofaviy ta‘lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish tartibi asosga ko‘ra qabul qilinsin.

2. Xorijiy davlat fuqarolarini masofaviy ta‘lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi tartib tasdiqlansin va quyidagi talablar belgilansin:

Ta‘limning kredit tizimini tashkil etish boshqarmasi (J. Karimov) Xorijiy talabalar bilan ishlash bo‘limi (O. Tadjibayev) bilan hamkorlikda Hemis dasturiy ta‘minot platformasida xorijiy talabalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, o‘quv kontentlarining to‘liq mavjudligini nazoratga olsin;

Xorijiy talabalar bilan ishlash bo‘limi (O. Tadjibayev) xorijiy talabalar bilan muntazam bog‘lanish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tahlil qilsin.

Xorijiy talabalarining sog‘lig‘ida muammo bo‘lgan va uzrli sabablari mavjud bo‘lganda ulardan topshiriqlar va imtihonlarni onlayn qabul qilishga ruxsat berilsin.

**Kengash kotibi**



**Q. Baymirov**